



## PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING PROKURATURA ORGANLARI BILAN HAMKORLIKDAGI MUAMMO VA KAMCHILIKLAR TAHLILI

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi  
3-o'quv kursi 317-guruh kursanti  
Yo'ldashxo'jayev Umidjon G'ayrat o'g'li*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada profilaktika inspektorlarining prokuratura organlari bilan o'zaro hamkorligining o'ziga xos xususiyatlari, uning maqsad va vazifalari, asosiy yo'nalishlari, tashkil etish tartibi, sohaga oid normativ huquqiy hujjatlar va hamkorlikdagi yuzaga kelayotgan muammo va kamchiliklar yoritilib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Huquqbazarliklar profilaktikasi, prokuratura organlari, hamkorlik, nazorat, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, davlat dasturlari, konsepsiya.*

**Abstract:** *This article describes the specific features of the cooperation of preventive inspectors with prosecutor's offices, its goals and tasks, main directions, organization procedure, regulatory legal documents related to the field, and emerging problems and shortcomings in cooperation.*

**Key words:** *Crime prevention, prosecutor's office, cooperation, control, legal awareness, legal culture, state programs, consultation.*

O'zbekiston Respublikasining "Huquqbazarliklar profilaktikasi to'g'risida" gi 2014-yil 14-may kuni qabul qilingan qonunga binoan Prokuratuta organlari huquqbazarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ hisoblanadi. O'z navbatida profilaktika inspektorlari ham huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshirish faoliyatida prokuratura organlari bilan hamkorlik qiladi. Bu hamkorlik "Huquqbazarliklar profilaktikasi to'g'risida" gi qonunning 11-moddasida belgilangan prokuratura organlarining vakolatlaridan kelib chiqib belgilanadi. Prokuratura organlarining huquqbazarliklar profilaktikasi sohasidagi vakolatlari quyidagilar hisoblanadi:

Prokuratura organlari:

huquqbazarliklar profilaktikasiga doir davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

huquqbazarliklar profilaktikasiga doir dasturlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi;

huquqbazarliklar profilaktikasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunlarining aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

huquqbazarliklar profilaktikasini, shu jumladan soliq, valyutaga oid huquqbazarliklar, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish profilaktikasini amalga oshiradi, shu jumladan mazkur huquqbazarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlaydi, bartaraf etadi;



huquqburzaliklar profilaktikasi sohasidagi qonun ijodkorligi faoliyatida ishtirok etadi;

aholi o'rtasida jamiyatda huquqiy ongi, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targ'ibot bo'yicha faoliyatda ishtirok etadi;

huquqburzaliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

huquqburzaliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda muassasalar bilan o'zaro hamkorlik qiladi.

Prokuratura organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Mamlakatimizda jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqburzaliklar profilaktikasi sohasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Ichki ishlar organlari tizimi tubdan takomillashtirildi, profilaktika inspektorlarining bilimi va kasb tayyorgarligini oshirish, ular uchun munosib ish sharoiti yaratish, o'z vazifalarini bajarish natijadorligi uchun moddiy rag'batlanirishning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish hamda bevosita o'zlariga biriktirilgan hududda xizmat turar joyi bilan ta'minlash choralari ko'rildi.

Natijada joriy yilning o'n oyida o'tgan yilning shu davriga nisbatan jinoyat sodir etish holatlari 9 ming 698 taga yoki 14 foizga, jinoyat-qidiruv yo'nalishida esa 4 ming 562 taga yoki 11 foizga kamayishiga erishildi.

Ayni paytda mahallalarda jinoyatchilik va huquqburzaliklarning oldini olish bo'yicha jamoatchilik institutlari hamda prokuratura organlari bilan hamkorlikda olib borilayotgan keng ko'lamlı profilaktik tadbirlar tufayli 1 ming 243 ta mahallada birorta ham jinoyat sodir etilmadi.

Davlatimiz rahbari Samarqand, Xorazm, Namangan viloyatlarida, kuni kecha poytaxtimizning Sergeli tumaniga tashrif buyurganida ham "Xavfsiz hudud", "Xavfsiz shahar" konsepsiyaligiga alohida e'tibor berdi. "Mening mahallamda jinoyat sodir bo'lmasligi kerak", degan tuyg'uni har bir fuqaro, ayniqsa, yoshlar ongida shakllantirish, befarqlik, loqaydlikka barham berish, pirovardida, har bir oila, ta'lim muassasasi, har bir mahallani jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirish, jamiyatda tinch va osoyishta hayotni ta'minlashning muhim sharti ekanini ta'kidlab kelmoqda. Bu borada Namangan shahridagi Orzu mahallasi, Xorazm viloyatidagi "jamoatchilik nazorati maskanlari" faoliyatidagi ijobiy tajribalarni o'rganish, ularni barcha hududlarga tatbiq etish muhim ahamiyatga ega.

Huquqburzaliklar profilaktikasi kunida o'tkazilayotgan tadbirlarda davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligi sezilmayotgani, ayrim hududlarda aholi bilan manzilli profilaktik tadbirlar yetarli darajada olib borilmagani oqibatida oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlar sodir etilayotgani asosiy muammo va kamchiliklarning biri bo'lib qolmoqda.

O'tgan davrda 7730 ta mahallada jinoyat sodir etilgan. Eng achinarlisi, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari tomonidan 875 ta, maktab o'quvchilari tomonidan 310 ta og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etilgan.

Bunday salbiy holatlar davlat va jamoat tashkilotlari o'rtasida hamkorlik to'g'ri yo'lga qo'yilmagani oqibatida yuzaga kelayotgani qayd etildi.



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligi borasida yo'1 qo'yilayotgan xato va kamchiliklar to'g'risida alohida to'xtalib, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbazarliklarning oldini olishda har bir idora o'z bilganicha ish tutib kelayotgani, aksariyat tadbirdarda muammoning yechimiga umumiyligini yondashilayotganini ta'kidladi. Shu munosabat bilan huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishda idoralararo hamkorlikni mustahkamlash choralarini ko'rishi yuzasidan zarur topshiriqlar berdi.

Endilikda ichki ishlari, prokuratura, Yoshlar ishlari agentligi, Xotin-qizlar qo'mitasi, mahalla hamda boshqa davlat va nodavlat tashkilotlari jinoyatchilik va huquqbazarlik uchun omil bo'layotgan ishsizlik, giyohvandlik, qarovsizlik, oilaviy nizolar va shu kabi boshqa illatlarning vaqtida oldini olish choralarini ko'rishi zarur. Shuningdek, umumiylidandan qochishi, buning uchun yagona maqsad sari intilib, hamkorlikda faoliyat olib borishi, har bir muammoga aniq reja asosida yondashish lozim.

Bundan buyon viloyat darajasidagi sektor rahbarlari har 15 kunda markaziy televide niye orqali hamda barcha tuman-shahar sektor rahbarlari mahalliy televide niye orqali maxsus ko'rsatuvlarda hududlardagi jinoyatlarning sabablari, ularni aniqlash borasida amalga oshirilayotgan ishlari to'g'risida aholiga tushuntirish va hisobot berib borishi yo'lga qo'yiladi.

Davlatimiz rahbari sud, prokuratura va ichki ishlari organlari faoliyati to'g'risida alohida to'xtalib, jinoyatlarning yashirilishiga favqulodda holat sifatida qaralishi lozimligi, qamoq aybdorlarni tarbiyalashning asosiy vositasi bo'lmashligi, ularga jazo tayinlashda aybdorning shaxsi va boshqa holatlarni atroflicha o'rganish muhimligiga alohida e'tibor qaratish kerakligini ta'kidlab kelmoqda.

Ayniqsa, voyaga yetmaganlar va ayollarga jazo tayinlashda sudlarning chuqur mulohaza yuritishi lozimligini ta'kidlamoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishimiz lozimki, profilaktika inspektori o'z faoliyatini amalga oshirish davomida prokuratura organlari bilan hamkorlikni samarali yo'lga qo'ysa huquqbazarliklarning oldini olish faoliyatida hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida bir qator muammo va kamchiliklar o'z yechimini topadi deb o'ylayman.